

O‘zbekiston
Metama’lumot
Kontraseptiv vositalardan foydalanish ko‘rsatkichlari

Ishlab chiqilgan sana: 16.08.2021 y.

Oxirgi yangilangan sana: 16.08.2021 y.

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 11-avgustda tasdiqlangan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017-yil 2-sentabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas’ul, shuningdek ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubi bilan ta’minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo‘mitasi, statistika hisobotlarini, ma’muriy ma’lumotlarni va statistika kuzatuvlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni, shuningdek hisobotlarga tushuntirishlarni o‘z vakolatlari doirasida boshqa organlardan talab qilib olish huquqiga ega.

2017-yil 12-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlar XVJning axborot almashish tizimlari doirasiga to‘g‘ri keladigan va muvofiqlashgan bo‘lishi kerak..

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasiga asosan Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma‘lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko‘ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma‘lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta‘minlash uchun mas‘ul bo‘lgan bo‘linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma‘muriy ma‘lumotlarni yetkazib beruvchilar o‘zlarida mavjud bo‘lgan statistika ma‘lumotlarini va (yoki) ma‘muriy ma‘lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga muvofiq, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo‘yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo‘yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

Statistika kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Vakolatli davlat organining tegishli bo‘linmasi Statistika kengashining ishchi organidir.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 28-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlash uchun yig‘iladigan, ishlov beriladigan va saqlanadigan statistika

ma'lumotlari, agar ular jismoniy yoki yuridik shaxslarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiyalash imkonini bersa hamda ularga taalluqli individual ma'lumotlarni oshkor qilsa, maxfiy hisoblanadi.

Quyidagilar maxfiy statistika ma'lumotlari jumlasiga kiradi:
statistik birlik to'g'risidagi individual ma'lumotlar oshkor etilgan taqdirda, uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi ma'lumotlar;
statistika ma'lumotlarining maxfiyligi ta'minlanishini talab etadigan umumlashtirilgan ko'rsatkichlar;
qonunga muvofiq davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir jumlasiga kiritilgan axborot.

Bundan tashqari ushbu qonunning 29-moddasiga muvofiq, rasmiy statistika sohasidagi vazifalar o'z zimmasiga olinayotganda uning maxfiyligiga rioya etish majburiyati:

rasmiy statistikani tayyorlovchilarning barcha shtatdagi va vaqtinchalik xodimlari; ro'yxatga olishni o'tkazishda ishtirok etayotgan, milliy statistika tizimiga daxldor bo'lmagan shaxslar tomonidan imzolaniadi.

Rasmiy statistikaning maxfiyligiga rioya etish majburiyati ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan vazifalar bajarilishi tugaganidan keyin ham yoki maxfiylikka rioya etish to'g'risidagi imzolangan hujjatda belgilangan muddat ichida amal qilishini davom etadi.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Rasmiy statistikani tayyorlovchilarga individual va boshqa ma'lumotlarni statistika maqsadlarida taqdim etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs respondentdir.

Respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilardan statistika kuzatuvlarining maqsadi va huquqiy asoslari to'g'risida tushuntirishlar hamda ma'lumotlar, shuningdek olingan individual ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlanishi haqida axborot olishga haqli.

Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno:

rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi;

agar taqdim etilgan ma'lumotlar o'z xulosalariga yoki rasmiy statistikani tayyorlovchilarning xulosalariga ko'ra to'g'ri, dolzarb va (yoki) to'liq bo'lmasa, rasmiy

statistikani tayyorlovchilar tomonidan belgilangan muddatlarda ma'lumotlarni tuzatishi, yangilashi, to'ldirishi hamda ularga taqdim etishi shart.

Respondentlar statistika ma'lumotlarini rasmiy statistikani tayyorlovchilarga qog'oz shaklida yoki elektron shaklda taqdim etishi mumkin. Bunda statistika ma'lumotlarini yig'ish usullari rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan belgilanadi.

Mamlakatni demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ayrim yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladigan ro'yxatga olishlarda ishtirok etuvchi respondentlar ro'yxatga olish varag'ining shakliga binoan ishonchli individual ma'lumotlarni taqdim etishiga haqli hamda ro'yxatga olishlarni o'tkazish jarayonlariga monelik qilmasligi shart.

Shuningdek ushbu qonunning 17-moddasiga asosan?. Ma'muriy ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchilarga taqdim etuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilardir.

Jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar bazalariga ega bo'lgan ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan individual ma'lumotlarni ma'muriy maqsadlarda shakllantirish;

ma'muriy ma'lumotlarni shakllantirish uchun birlamchi ma'lumotlar manbalarini tanlash;

ma'lumotlarni yig'ish usullarini belgilash, zarur bo'lgan ma'lumotlarni bevosita jismoniy yoki yuridik shaxslardan, uy xo'jaliklaridan olish va yig'ish.

Jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar bazalariga ega bo'lgan ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga:

o'z tasarrufida mavjud bo'lgan ma'muriy ma'lumotlarni;
statistika ma'lumotlari sifatini baholash imkonini beruvchi metama'lumotlarni bepul taqdim etishi shart.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ma'muriy ma'lumotlarni taqdim etish bir yillik statistika dasturida belgilangan shakllar va davriylik bo'yicha amalga oshiriladi.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasida 13 nafar xodim ishlaydi. Boshqarma 3 ta bo'limdan iborat.

Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi bo'yicha xodimlarni o'qitish doimiy ravishda olib boriladi. Jumladan, boshqarma xodimlari:

Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida, shuningdek, xalqaro statistika tashkilotlarining boshqa seminarlarida o'z malakalarini oshiradilar.

Boshqarmada kompyuterlar soni yetarli bo'lib, har bir xodim alohida

kompyuter bilan ta'minlangan. Barcha kompyuterlar lokal tarmoqqa ulangan, shuningdek, internet tarmog'iga kirish imkoniyatiga ega.

Moliyaviy mablag'lar statistika ishlari dasturi doirasida taqdim etiladi va ushbu dasturda nazarda tutilgan statistika ishlarini bajarish uchun yetarlidir.

1. Beg'arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasiga asosan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: Mustaqillik, tushunarlilik va shaffoflik, aniqlik va ishonchlilik, beg'arazlik va xolislik, statistik maxfiylik, dolzarblilik.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasiga muvofiq, Jismoniy va yuridik shaxslar (shu jumladan ularning alohida bo'linmalari, filiallari va vakolatxonalari) rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bo'lishi mumkin.

Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

rasmiy statistikani tayyorlovchilarning rasmiy veb-saytlarida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan statistika ma'lumotlaridan erkin foydalanish;

rasmiy veb-saytlarda va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinmagan ochiq statistika ma'lumotlarini olish maqsadida rasmiy statistikani tayyorlovchilarga so'rov bilan yoki ularni e'lon qilish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qilish.

Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar o'z mahsulotlarida (ishlarida va xizmatlarida) o'zi foydalangan statistika ma'lumotlarining manbalarini ko'rsatishi shart.

Individual ma'lumotlardan va maxfiy ma'lumotlardan ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanish ushbu Qonunning 30- va 31-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda (15-band) Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tushuntirishlar berish

huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, Rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari - mustaqillik, tushunarlik va shaffoflik, aniqlik va ishonchlik, beg'arazlik va xolislik, statistik maxfiylik, dolzarblik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan.

Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan Davlat statistika ishlari dasturi Qo'mita rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud.

Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Qo'mita rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas (“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo'mita raisi, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo'mitasi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Kontseptsiya va tushunchalar

2.1.1 Kontseptsiya va tushunchalar

“Homilador, tug‘adigan va tuqqanlarga tibbiy yordam ko‘rsatish, homiladorlikni to‘xtatish va kontratsepsiya to‘g‘risida” ko‘rsatkichini hisobga olishning uslubiy asosi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020 yil 30 sentabrdagi 34- son qarori bilan tasdiqlangan “Sog‘liqni saqlash statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom” hisoblanadi.

Shifoxona muassasalari (statsionar tibbiyot muassasalari) — kecha- kunduz davolanish, parvarish qilish va tibbiy-himoya muolajasiga muhtoj bemorlarga tibbiy-diagnostik yordam ko‘rsatuvchi tashkilot.

Shifoxona muassasalari yotqizilgan bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatadi. Bularga shifoxonalar, tibbiy sanitariya qismlari, statsionar dispanserlar va bemorlar kecha-kunduz o'rinlar bilan ta'minlangan boshqa muassasalar kiradi. Shifoxona muassasalarida zaruriy anjomlar bilan jihozlangan va band bo'lishi yoki band bo'lmasligidan qat'iy nazar bemorlarni qabul qilish uchun tayyor turgan shifoxona o'rinlari hisobga olinadi.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini qamrab oladi.

Ko'rsatkich tuman tibbiyot birlashmalari, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etiladigan 1-tib ayollar yillik shakli Davlat statistika hisoboti asosida tuziladi.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Statistik qamrovdan istisnolar mavjud emas

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Aniqlanmagan faoliyat mavjud emas

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Mavjud emas

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Mavjud emas

2.4.2 Hisobga olish asosi

Mavjud emas

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

“Homilador, tug‘adigan va tuqqanlarga tibbiy yordam ko‘rsatish, homiladorlikni to‘xtatish va kontratsepsiya to‘g‘risida” ko‘rsatkichlari tug‘ruqxonalar, perinatal markazlar, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy akusher va ginekologiya markazi va uning hududiy filiallari, shuningdek, akusher-ginekologik bo‘limlari (kabinetlar), stasionarda tug‘ruq bo‘limlari (palatalar) bo‘lgan davolash-profilaktika muassasalari tomonidan taqdim etilgan Davlat statistika hisoboti asosida shakllantiriladi.

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qarori shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 9- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 28- oktabrdagi PQ-2646-sonli “Tadbirkorlik subektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 66-son qarorini amalga oshirish choralari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq doimiy ravishda yangilanib turadigan **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** statistika ma'lumotlarni shakllantirish uchun birlamchi manbalarni aniqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat statistika ishlari dasturining to‘liqligini ta‘minlash uchun birlamchi ma'lumotlar doimiy ravishda tahlil qilinadi. Hisobot shakllari vaqti-vaqti bilan ishchi kuchini hisobga olish va xalqaro taqqoslash sohasidagi o‘zgargan vaziyatlarni hisobga olish uchun qayta ko‘rib chiqiladi.

“Homilador, tug‘adigan va tuqqanlarga tibbiy yordam ko‘rsatish, homiladorlikni to‘xtatish va kontratsepsiya to‘g‘risida” ko‘rsatkichini shakllantirishda “1 tib (ayollar)” yillik davlat statistika hisoboti axborot bazasi hisoblanadi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Shifoxona muassasalari (stasionar tibbiyot muassasalari) — kecha- kunduz davolanish, parvarish qilish va tibbiy-himoya muolajasiga muhtoj bemorlarga tibbiy-diagnostik yordam ko‘rsatuvchi tashkilot.
Statistik qamrov - ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog‘iston Respublikasi,

12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlarni e'lon qilish davri: har yili - hisobot davridan keyin 5 oydan oshmasligi kerak.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda taqdim etilgan ma'lumotlar asosida jami respublika bo'yicha, viloyatlar kesimida shakllantiriladi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida tahlil qilinadi, mantiqiy nazoratdan o'tkaziladi va hududiy bo'limlar darajasida tekshiriladi. Agar ro'yxatga olish, tasniflash, nazorat xatolar aniqlansa, ma'lumotlar respondentlar bilan bog'lanib yana aniqlik kiritiladi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

Homilador, tug'adigan va tuqqanlarga tibbiy yordam ko'rsatish, homiladorlikni to'xtatish va kontratsepsiya to'g'risida ko'rsatkichini shakllantirishda, ma'lumotlar joriy va o'tgan davrga nisbatan taqqoslanadi.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Ma'lumotlarga tegishli tuzatish va o'zgartirish kiritishda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika ko'mitasi tomonidan tasdiqlangan sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy Nizom, asosida amalga oshiriladi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Yo'q

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Yo'q

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Agar ilgari e'lon qilingan ma'lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlansa, keyingi nashrlarda bu ma'lumotlarga aniqlik kiritiladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Yo'q

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Davriylik va muddatlilik ma'lumotlarni tarqatishning umume'tirof etgan standartlariga javob beradi.

Homilador, tug'adigan va tuqqanlarga tibbiy yordam ko'rsatish, homiladorlikni to'xtatish va kontratsepsiya bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik davriylikda chop etiladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha statistik ma'lumotlarni ishlab chiqarish va yillik ma'lumotlarni tarqatish Davlat statistika ishlari dasturi asosida ma'lumotlarni e'lon qilish taqvimiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Yo'q

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Dinamik qatorlar 2009- yildan mavjud bo'lib Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida (<http://stat.uz/>) taqdim etilgan.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Yo'q

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Dastlabki ma'lumotlarning shakllantirish muddati va ularni qayta ko'rib chiqish asosida yakuniy ma'lumotlarning shakllantirilishi oldindan Davlat statistika dasturida belgilab qo'yiladi. Davlat statistika ishlari dasturi Qo'mita rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtiriladi, shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz rasmiy saytida e'lon qilinadi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Yakuniy ma'lumotlar e'lon qilinadi

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Statistik to'plamlarda oldingi yil uchun ayrim ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqilishi ko'rsatiladi. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi nashrlari orqali chop etiladi. Aniqlangan farqlarning tahlili natijalari haqida foydalanuvchilarga nashrlardagi izohlar orqali xabardor qilinadi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb -saytida joylashtirilgan, statistik to'plamlarda keltirilgan (4.2.3 -bandga qarang) shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning so'roviga asosan taqdim etiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Homilador, tugʻadigan va tuqqanlarga tibbiy yordam koʻrsatish, homiladorlikni toʻxtatish va kontratsepsiya statistik maʼlumotlar 1 yilda bir marotaba nashr etiladi.

Maʼlumotlar foydalanuvchilarga bosma shaklda Davlat statistika qoʻmitasining quyidagi nashrlari orqali tarqatiladi:

- «Oʻzbekistonning yillik statistik toʻplami»
- «Oʻzbekistonda sogʻliqni saqlash»
- «Oʻzbekiston raqamlarda»
- «Oʻzbekiston hududlarining yillik statistik toʻplami»
- «Oʻzbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi» va boshqalar.

Shuningdek, maʼlumotlar davlat boshqaruv organlariga kelishilgan jadvallar shakllari hamda foydalanuvchilarning soʻrovlari asosida taqdim etiladi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Mavjud emas

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Jadval koʻrinishda, foydalanuvchilarning soʻroviga muvofiq

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

“Homilador, tugʻadigan va tuqqanlarga tibbiy yordam koʻrsatish, homiladorlikni toʻxtatish va kontratsepsiya statistik maʼlumotlar 1 yilda bir marotaba nashr etiladi” boʻyicha maʼlumotlari www.stat.uz saytida eʼlon qilinadi va har yili yangilanadi.

5.1.3. Maʼlumotlarni eʼlon qilish jadvali

Rasmiy statistika taqvim www.stat.uz rasmiy saytida eʼlon qilingan

5.1.4 Bir vaqtning oʻzida eʼlon qilish

-

5.1.5 Soʻrov boʻyicha maʼlumotlarni tarqatish

Oʻzbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi toʻgʻrisida”gi Nizom va boshqa meʼyoriy hujjatlarga muvofiq, statistik maʼlumotlar foydalanuvchilarga ularning

so'rovlari bo'yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning so'rovlari bo'yicha bosma yoki elektron jadval ko'rinishida, statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor axborot shaklida, shuningdek, tomonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi to'g'risidagi kelishuvlarga asosan amalga oshiriladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Kontseptsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Davlat statistika qo'mitasining veb -saytining INERAKTIV XIZMATLAR saxifasida USLUBIY MATERIALLAR bo'limida, statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizomlar joylashtirilgan.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan rasmiy nashrlarda statistik ma'lumotlarni tayyorlash uchun mas'ul xodimlar bilan aloqa bog'lash бўйича manzillar (pochta, telefon, faks, elektron manzillar va h.k.) ko'rsatib qo'yiladi.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Yo'q

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Yo'q

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

Yo'q

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Yo‘q

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

Yo‘q

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Qirg'izov Dilshodbek Erkinbaevich
Lavozim:	Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi boshlig'i
Bo'linma:	
Idora:	
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2308070
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	d.kirgizov@stat.uz